“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati
“Temiryo‘linfratuzilma” aksiyadorlik jamiyati
PERSONALNI TAYYORLASH MUASSASASI
TAYYORLOV YO‘NALISHI
711500 - Transport vositalari muhandisligi (turlari bo‘yicha)
Namunaviy o‘quv reja

O‘rta professional ta'lim darajasidagi kasb nomi	Kvalifikatsiya nomi	O‘qish muddati	O‘qish shakli	QR kodi
40711503 - Lokomotivlarni boshqarish mashinisti yordamchisi	1. Elektrovoz mashinisti yordamchisi 2. Teplovoz mashinisti yordamchisi 3. Elektropoyezd mashinisti yordamchisi	1,5 yil	Kunduzgi, Ishlab chiqarishdan ajralgan holda	

I. O‘quv jarayonining tarkibiy qismlari

T/r	Blok nomi	Soatlar miqdori	Foizda
1	Umumkasbiy va maxsus fanlar	1260	58
2	O‘quv amaliyot(lar)i	432	20
3	Ishlab chiqarish va diplom oldi amaliyot(lar)i	396	18
4	Yakuniy attestatsiya	72	3
	Jami	**2160**	**100**

II. O‘quv reja

№	Fanning nomi	O‘quvchining umumiy yuklamasi, soatlarda						
		Umumiy yuklama		Auditoriyadagi o‘quv yuklamasi				mustaqil ta'lim
		soat	%	jami	nazariy mashg‘ulot	amaliy mashg‘ulot	laboratoriya ishi	
1	2	3	4	5	6	7	8	9
	1-BLOK							
1.00	**Umumkasbiy fanlar:**	**594**	**18**	**396**	**218**	**178**	**0**	**198**
1.01	Elektrotexnika va elektronika asoslari	54		36	22	14		18
1.02	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi	54		36	32	4		18
1.03	Temir yo‘llardan texnik foydalanish qoidalari va yo‘riqnomalar	108		72	48	24		36
1.04	Axborot texnologiyalari	54		36	24	12		18
1.05	Fuqaro himoyasi	54		36	12	24		18
1.06	Psixologiya	54		36	16	20		18
1.07	Avtomatik tormozlar	108		72	44	28		36
1.08	Xavfsizlik qurilmalarining tuzilishi (KLUB-U)	108		72	20	52		36
	2-BLOK							
2.00	**Kvalifikatsiyalar kesimida:**	**2592**	**80**	**1728**	**572**	**1156**	**0**	**864**
	2.1-BLOK							
2.1	**Elektrovoz mashinisti yordamchisi kvalifikatsiyasi bo‘yicha:**	**864**	**27**	**576**	**180**	**396**	**0**	**288**
	Maxsus fanlar:	**432**		**288**	**180**	**108**	**0**	**144**
2.1.1	"O‘zbekiston" elektrovozining mexanik uskunalari	162		108	62	46		54
2.1.2	Elektrovozlarning mexanik uskunalari (VL-60, 80)	81		54	34	20		27
2.1.3	Elektrovozlarning elektr uskunalari	108		72	48	24		36
2.1.4	Elektrovozlarni boshqarish va ularga texnik xizmat ko‘rsatish	81		54	36	18		27
	O‘quv amaliyot(lar)i:	**216**		**144**	**0**	**144**	**0**	**72**
2.1.5	Elektrovoz.mashinisti yordamchisi ishini o‘rganish	216		144		144		72
2.1.6	***Ishlab chiqarish amaliyoti***	**162**		**108**		**108**		**54**
2.1.7	***Diplom oldi amaliyoti***	**36**		**24**		**24**		**12**
2.1.8	***Yakuniy attestatsiya***	**18**		**12**		**12**		**6**
	2.2-BLOK							
2.2	**Teplovoz mashinisti yordamchisi kvalifikatsiyasi bo‘yicha:**	**864**	**27**	**576**	**170**	**406**	**0**	**288**
	Maxsus fanlar:	**432**		**288**	**170**	**118**	**0**	**144**
2.2.1	Teplovozlarning mexanik uskunalari	162		108	56	52		54
2.2.2	Teplovozlarning elektr uskunalari	162		108	66	42		54
2.2.3	Teplovozlarni boshqarish va ularga texnik xizmat ko‘rsatish	108		72	48	24		36

	O'quv amaliyot(lar)i:	**216**		**144**	**0**	**144**	**0**	**72**
2.2.4	Teplovoz mashinisti yordamchisi ishini o'rganish	216		144		144		72
2.2.3	***Ishlab chiqarish amaliyoti***	**162**		**108**		**108**		**54**
2.2.4	***Diplom oldi amaliyoti***	**36**		**24**		**24**		**12**
2.2.5	***Yakuniy attestatsiya***	**18**		**12**		**12**		**6**
	2.3-BLOK							
2.3	**Elektropoyezd mashinisti yordamchisi kvalifikatsiyasi bo'yicha:**	**864**	**27**	**576**	**222**	**354**	**0**	**288**
	Maxsus fanlar:	**432**		**288**	**222**	**66**	**0**	**144**
2.3.1	Elektropoyezdlarning mexanik uskunalari	162		108	82	26		54
2.3.2	Elektropoyezdlarning elektr uskunalari	162		108	90	18		54
2.3.3	Elektropoyezdlarni boshqarish va ularga texnik xizmat ko'rsatish	108		72	50	22		36
	O'quv amaliyot(lar)i:	**216**		**144**	**0**	**144**	**0**	**72**
2.3.4	Elektropoyezd mashinisti yordamchisi ishini o'rganish	216		144		144		72
2.3.5	***Ishlab chiqarish amaliyoti***	**162**		**108**		**108**		**54**
2.3.6	***Diplom oldi amaliyoti***	**36**		**24**		**24**		**12**
2.3.7	***Yakuniy attestatsiya***	**18**		**12**		**12**		**6**
	3-BLOK							
3.00	**Yakuniy attestatsiya**	**54**	**2**	**36**		**36**		**18**
	Umumiy o'quv yuklama:	**3240**	**100**	**2160**	**790**	**1370**	**0**	**1080**

III. Tushuntirish xati

1. Mashg'ulotlar mazkur namunaviy o'quv rejadagi kasb (mutaxassislik) bo'yicha qabul qilingan tinglovchilar guruhi shakllangandan so'ng o'quv jarayoni grafigida belgilangan muddatda amalga oshiriladi.

2. O'qish davrini hisobga olgan holda mazkur namunaviy o'quv reja asosida tanlab olingan kvalifikasiyalar bo'yicha fan (modul)lar va ishlab chiqarish amaliyoti soatlari taqsimlanib ishchi o'quv rejasi ishlab chiqiladi va o'quv-uslubiy kengash qarori bilan tasdiqlanadi, bunda:

- fan (modul) va o'quv amaliyotlariga ajratilgan soatlarning haftalik yuklamasi 36 soatgacha, ishlab chiqarish va diplom oldi amaliyotlariga ajratilgan soatlarning haftalik yuklamasi 36 soatdan etib belgilanadi;

- o'quv yuklamasining haftalik hajmini saqlagan holda o'quv fan (modul)lari bloki hamda bloklar tarkibidagi fan (modul)larga ajratilgan soatlar hajmini 20% gacha o'zgartirishga ruhsat etiladi.

3. O'quv jarayoni grafigi ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish davri, sohadagi mavsumiylikni hamda hududning va kasbning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, ish beruvchilar bilan kelishilgan holda ishlab chiqiladi va o'quv-uslubiy kengash qaroriga muvofiq tasdiqlanadi.

4. Fan dasturlaridagi mavzular va ularga ajratilgan soatlarga 30% gacha o'zgartirish kiritish mumkin.

"Temiryo'linfratuzilma" aksiyadorlik jamiyati bosh direktori — S.A.Norqabilov

"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati Lokomotivlarni ekspluatatsiya qilish boshqarmasi boshlig'i — Sh.T.Tulyaganov

"Temiryo'linfratuzilma" aksiyadorlik jamiyati kadrlar boshqarmasi boshlig'i — A.X.Mavlanov

"Temiryo'linfratuzilma" aksiyadorlik jamiyati Personalni tayyorlash muassasasi boshlig'i — K.A.Jo'raboyev

"Temiryo'linfratuzilma" aksiyadorlik jamiyati Personalni tayyorlash muassasasi o'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i — Sh.Sh.Ibragimov

"Temiryo'linfratuzilma" aksiyadorlik jamiyati Personalni tayyorlash muassasasi Mashinist va mashinist yordamchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash o'quv markazi boshlig'i — G'.T.Axmedov

"Temiryo'linfratuzilma" AJ Personalni tayyorlash muassasasi o'quv-uslubiy bo'lim yetakchi mutaxassisi. — X.Sh.Suyunov

“O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI” AKSIYADORLIK JAMIYATI

“TEMIRYO‘LINFRATUZILMA” AKSIYADORLIK JAMIYATI

PERSONALNI TAYYORLASH MUASSASASI

Professional ta’limning tayyorlov yo‘nalishi:
711500 – Transport vositalari muhandisligi (turlari bo‘yicha).
Kasb nomi: 40711503 - Lokomotiv boshqarish mashinisti yordamchisi.
Ta’lim darajasi: O‘rta professional.
Kvalifikatsiya(lar) nomi:
Elektrovoz mashinisti yordamchisi;
Teplovoz mashinisti yordamchisi;
Elektropoyezd mashinisti yordamchisi.

O‘quv dasturlari to‘plami.

TOSHKENT – 2024

1. “Temiryo‘linfratuzilma” aksiyadorlik jamiyatining Personalni tayyorlash muassasasi tomonidan **ISHLAB CHIQILDI VA TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.**

2. Mazkur malaka talabi hamda o‘quv dasturi uchun me’yoriy huquqiy asoslar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi “O‘zbekiston respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 466-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrdagi “Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4939-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktabrdagi “O‘zbekiston respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-329-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to‘g‘risida”gi 287-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-sentabrdagi “Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 287-sonli qarori.

3. “Temiryo‘linfratuzilma” aksiyadorlik jamiyatining Personalni tayyorlash muassasasi o‘quv-uslubiy kengashning 2024-yil 09-fevraldagi 1-son yig‘ilishida ma’qullangan va “Temiryo‘linfratuzilma” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 12-fevraldagi 24-JDS - son buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.**

“TEMIRYO‘LINFRATUZILMA” AJ

O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI” AKSIYADORLIK JAMIYATI KADRLAR BOSHQARMASI “TEMIRYO‘LINFRATUZILMA” AKSIYADORLIK JAMIYATI XODIMLAR BO‘LIMI

“O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI” AKSIYADORLIK JAMIYATI
“TEMIRYO‘LINFRATUZILMA” AKSIYADORLIK JAMIYATI

PERSONALNI TAYYORLASH MUASSASASI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIMNING

40711503 - Lokomotivlarni boshqarish mashinisti yordamchisi kasbi bo‘yicha

Elektrotexnika va elektronika asoslari fanidan

O‘QUV DASTURI

Kvalifikatsiyalar nomi:
1. Elektrovoz mashinisti yordamchisi
2. Teplovoz mashinisti yordamchisi
3. Elektropoyezd mashinisti yordamchisi

O‘quv rejadagi tartib raqami: 1.01

Ajratilgan soat: 36

Toshkent – 2024

Tuzuvchilar:	J.F.Xakimov	“Temiryo‘linfratuzilma” AJ Personalni tayyorlash muassasasi Mashinist va mashinist yordamchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash o‘quv markazi IT mutaxassisi
Taqrizchilar:	Sh.T.Tulyaganov	“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ Lokomotivlardan foydalanish boshqarmasi boshlig‘i;
	Sh.Sh.Ibragimov	“Temiryo‘linfratuzilma” AJ Personalni tayyorlash muassasasi o‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i.

1. O‘quv dasturiga umumiy talablar

Dastur nomi	Elektrotexnika va elektronika asoslari
Ajratilgan soat	36
Mavzular soni	5
Dasturning maqsadi	Fanni o‘rganishning asosiy vazifasi elektrotexnik va elektron qurilmalardan iborat texnik qurilma va tarmoqlar bilan tanishtirish.
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	Elektrotexnik qurilmalarni o‘lchash qurilmalari yordamida tekshirish va hato, kamchiliilarini aniqlash. Elektron apparatlar yordamida laboratorik sxemalar tuzish hamda formulalar asosida ishlash.
Bilimlar	- fizika va elektrotexnika qonunlarini; - elektr iste’molchilarni va manbalarni ulanish usullarini; - elektr asboblari tuzilishi va ularning ishlash prinsipi; - elektr o‘lchov birliklarini; - elektr manbalari va iste’molchilarini ulashda va ular bilan ishlashda texnika xavfsizligi.
Ko‘nikmalar	- elektr apparatlari, jihozlari, o‘lchov va elektron asboblarining texnik tavsifini aniqlash; - elektr sxemalari hisoblarini bajarish; elektr o‘lchov asboblaridan to‘g‘ri foydalanish; - elektr asboblari va jihozlarining nuqsonlarini aniqlash va ularni ta’mirlash; - texnika xavfsizlik qoidalariga amal qilingan holda elektr uskunalari bilan ishlash; - o‘zgaruvchan elektr zanjiri elementlari va parametrlari; - yarim o‘tkazgichli asboblarning asosiy xususiyatlari; - yarim o‘tkazgichli diodlar; - yarim o‘tkazgichli rezistorlar; - tranzistor, tiristor, mikrosxemalarni o‘rganish; - elektr dvigatellarni ulanish sxemalari; - texnika jihozlarida ishlatilib kelayotgan elektr dvigatellarni parametrlari; - texnika jihozlaridagi himoya.
O‘quv rejasiga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fanning nomi	Matematika, fizika, muhandislik va kompyuter grafikasi, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi.
O‘qitishni tashkiliy shakli	N – Nazariy ta`lim; A – Amaliy mashg‘ulot.
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhda belgilangan o‘qitish tili asosida
Baholash tartibi	Baholash bo‘yicha amaldagi tartib asosida
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash	Yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriq

2. O‘quv dasturi mazmuni

№	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O`qitishni tashkiliy shakli	Mustaqil ta`lim
1.	Kirish. Elektr uskunalarni ishlatishda texnika xavfsizligi qoidalari.	Kirish. Fan haqida asosiy tushunchalar va iste’molchilarini ulashda va ular bilan ishlashda texnika xavfsizligi qoidalari.	2	N	1
2.	Elektr o‘lchov birliklari.	Elektr zanjirning asosiy elementlari. Elektr o‘lchov asboblarning umumiy tuzilish sxemasi. Elektr o‘lchov asboblarining umumiy tuzilish sxemasining shartli belgilari. Elektr o‘lchov asboblarning klassifikatsiyasi.	2 2	N A	1 1
3.	Fizika va elektrotexnika qonunlari.	Elektr maydoni va uning xususiyatlari. Kondensatorlar. Elektr qarshilik va o‘tkazuvchanlik. Om qonuni. Om qonunini tekshirish. Sxemada rezistorlarni ulash. Rezistorlarni ketma-ket ulash usullari. Rezistorlarni va parallel ulash usullari. Izolyasiya qarshiligini o‘lchash. Elektromagnit induksiya qonuni.qarshiligini o‘lchash. Elektromagnit induksiya qonuni.	4 4	N A	2 2
4.	Elektr iste’molchilarni va manbalarni ulanish usullarini o‘rganish.	O‘zgaruvchan tokka oid tushuncha-lar. O‘zgaruvchan tok zanjirining aktiv, induktiv va sig‘im qarshilik zanjirlarini hisoblash. O‘zgarmas tok elektrodvigatelning tuzilishi va ishlash prinsipi. Uch fazali o‘zgaruvchan tok zanjiri. Uch fazali o‘zgaruvchan tok generatorlarini yulduzsimon ulash usullari. Uch fazali o‘zgaruvchan tok generatorlarini uchburchakn ulash usullari. Transformatorning tuzilishi va ishlash prinsipi.	8 6	N A	4 3
5.	Elektron asboblarining tuzilishi va ularning ishlash prinsipi.	Yarim o‘tkazgichli diod. Tranzistorlar haqida umumiy ma’lumot. Elektron to‘g‘rilagichlar.	6 2	N A	3 1
Jami:			**36**	**22/14**	**18**

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘quv dasturi davomida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga hamohang bo‘lishi lozim.

4. Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sh.Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston”-2018.

2. Sh.Mirziyoyev “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir” Toshkent – “O‘zbekiston”-2018.

3. M.Yakubov va boshqalar. “Elektrotexnikaning nazariy asoslari va elektr o‘lchashlar”, “O`qituvchi” T.2011y.

4. S.Majidov “Elektrotexnika”, T. “Uzbekiston”, 2002 y.

5. Q.Odilov “Umumiy elektrotexnika va elektronika asoslari”, T. “Ilm Ziyo”, 2005y.

6. F.Evdokimov “Umumiy elektrotexnika”, T. “Uqituvchi”, 1995y.

7. M.Turdiyev “Elektrotexnika va elektronika asoslari”,T. “Uqituvchi”, 2002y.

8. Ф.Либерман, «Электроника на железнодорожном транспорте», М., «Транспорт», 1987 г.

9. A.Xolikov, «Elektron qurilmalari, analogli va raqamli sxemotexnika», T., 2002y.

10. J.S.Salimov, N.B.Pirmatov, “Elektr mashinalari”, T., O‘qituvchi, 2005 y.

11. R.Baratov va boshqalar, “Elektr yuritma va jihozlarni ishga tushirish hamda ta’mirlash”, T., G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2008y.

12. М.В.Немцов, М.Л.Немцова, «Электротехника и электроника», М., Издательский центр «Академия», 2007г.

Internet manbalari

13. www. bestbookbox.com.

14. www. books.study.info

15. www. elektronics.ru

16. www. sxemotexnika.ru

“O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI” AKSIYADORLIK JAMIYATI
“TEMIRYO‘LINFRATUZILMA” AKSIYADORLIK JAMIYATI

PERSONALNI TAYYORLASH MUASSASASI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIMNING

40711503 - Lokomotivlarni boshqarish mashinisti yordamchisi kasbi bo‘yicha

Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi fanidan

O‘QUV DASTURI

Kvalifikatsiyalar nomi:
1. Elektrovoz mashinisti yordamchisi
2. Teplovoz mashinisti yordamchisi
3. Elektropoyezd mashinisti yordamchisi

O‘quv rejadagi tartib raqami: 1.02

Ajratilgan soat: 36

Toshkent – 2024

Tuzuvchilar:	B.Xikmatov	Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi instituti boshlig'i, g.f.n.
	O.Yuldashev	Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi instituti professori, t.f.n, dotsent.
	I.Sharapov	Pedagogik innovatsiyalar instituti tayanch doktoranti
Taqrizchilar:	O.Yo'ldoshev	Fuqaro muhofazasi instituti kafedra professori
	Sh.Narziyev	I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti

1. O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar

O‘quv dasturining nomi	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi
Ajratilgan soat	36
Mavzular soni	14
Dasturning maqsadi	O‘quvchilarga hozirgi zamon nuqtai-nazardan mehnatni muhofaza qilishga qaratilgan va inson faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish muhiti hamda tabiat orasidagi o‘zaro ta’sir doirasini tushuntirishdan iborat. Mazkur fan mehnat muhofazasi bo‘yicha javobgarlik hissini va umumiy ishlab chiqarish madaniyatini tarbiyalaydi. O‘quvchilarning ishlab chiqarish bilan bog‘liq jarayonlarda xavfsizlik qoidalariga rioya etish, ushbu jarayonda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan turli baxtsiz xodisa, kasb kasalligi hamda favqulodda vaziyatlarni oldini olish borasidagi xatti-harakatlarini shakllantiradi. O‘quvchilarda mehnatni muhofaza qilish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarini oshiradi.
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	O‘quvchilarda ishlab chiqarishda turli texnologik jarayonlar, xavfli, zararli va zaharli omillarni to‘g‘ri baholay olish ko‘nikmasi shakllanadi. Turli baxtsiz xodisalar, kasb kasalliklari hamda favqulodda vaziyatlarni oldini olish malakasi shakllanadi. O‘quvchining turli sohalarda, kasb yo‘nalishlari bo‘yicha mehnatni muhofaza qilish qoidalari, ularni amalga oshirish tartibi bo‘yicha ko‘nikmaga ega bo‘ladi.
Bilim	- mehnat muhofazasi to‘g‘risidagi amaldagi qonunchilik; - ishlab chiqarish sanitariyasi va gigiyenasi meyorlari; - texnika xavfsizligi qoidalari; - yong‘in xavfsizligi qoidalari.
Ko‘nikma	- mehnat muhofazasi va mehnat qonunchiligi talablarini bajarish; - kasbiy faoliyatda mehnat xavfsizligi talablariga muvofiq ishni tashkil etish va mehnat xavfsizligini ta’minlash; - maxsus texnika va asbob-uskunalardan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; - ishlab chiqarishda sanitariya va gigiyena talablarini bajarish.
O‘quv rejasiga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fanning nomi	Umumkasbiy hamda maxsus fanlar bloklaridagi ayrim kasbiy faoliyatda xavfsizlikni ta’minlashga mazmunan yaqin bo‘lgan fanlar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi ta’minlangan.
O‘qitishni tashkiliy shakli	N – Nazariy ta’lim; A – Amaliy mashg‘ulot.
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhda belgilangan o‘qitish tili asosida
Baholash tartibi	Baholash bo‘yicha amaldagi tartib asosida
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash	Yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriq

2. O‘quv dasturi mazmuni

T/r	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O`qitishni tashkiliy shakli	Mustaqil ta`lim
1-bo‘lim. Mehnat qonunchiligi					
1.	Kirish. Mehnat muhofazasining umumiy masalalari	Kirish. Mehnat muhofazasining umumiy masalalari.	2	N	1
2.	Mehnatni muhofazasining nazariy va qonunchilik asoslari. Mehnat qonunchiligida huquqiy va tashkiliy masalalar	Mehnat qonunchiligida huquqiy va tashkiliy masalalar Mehnatni muhofazasining nazariy va qonunchilik asoslari. Xavfsiz mehnat sharoitini yaratish tadbirlari. Texnika xavfsizligi muxandisining vazifalari. Yo‘riqnomalar. Mehnat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha davlat va jamoa nazorati. Mehnat xavfsizligi qoidalari buzilganda javobgarlik turlari.	2	N	1
2-bo‘lim. Sanoat sanitariya va gigiyenasi					
3.	Ishlab chiqarish sanitariyasi	Ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigiyenasi. Sanitariya talablari va mehnat sharoiti. Ishlab chiqarish sanitariyasi. Havo orqali ishchiga ta’sir etadigan zararlar, noqulay mikroiqlim, changlar, gazlar, shovqinlar, infra va ultratovushlar, tebranma harakatlar, yoritilish darajasi, nurlanish ko‘rsatkichlari.	2	N	1
4.	Mehnat gigiyenasi	Mehnat gigiyenasi meyorlari. Ish vaqti, dam olish vaqti, ta’til vaqti va boshqa vaqt me’yorlari.	2	N	1
5.	Zararli, xavfli omillardan himoyalanish vositalari	Shaxsiy muhofaza vositalari. Nafas olish a’zolarini himoya qiluvchi vositalar. Paxtadokali niqob, respiratorlar, gazniqoblar va avtanom nafas olish apparatlari, ulardan to‘g‘ri foydalanish tartibi. Teri muhofaza vositalari. Xavf omillariga ko‘ra qo‘llaniladigan himoya kiyimlar, ulardan to‘g‘ri foydalanish tartibi.	2 2	N A	1 1
3-bo‘lim. Texnika xavfsizligi					
6.	Texnika xavfsizligining maqsadi, vazifasi va ahamiyati	Ishlab chiqarishda texnika xavfsizligi, uning maqsadi, vazifasi va ahamiyati. Texnika xavfsizligini ta’minlashning asosiy bosqichlari. Ishlab chiqarishda yuzaga keladigan xavfli omillar, ularning guruhlanishi. Mashina va mexanizmlarning xavfli joylari (zonalari). Mashina, mexanizm, jihozlar va kichik mexanizatsiya vositalarining texnik holatiga bo‘lgan umumiy va maxsus	4	N	1

		xavfsizlik talablari. Mashina va mexanizmlarni yuqori xavfli va zararli sharoitlarda ishlatishdagi xavfsizlik talablari.			
7.	Mehnat jarayonida jarohatlanish va kasb kasalligi sabablarini tahlil qilish. Xavfsiz mehnat sharoitini yaratish	Mehnat jarayonida jarohatlanish va kasb kasalligi sabablarini tahlil qilish. Xavfsiz mehnat sharoitini yaratish. O‘zbekiston Respublikasining baxtsiz hodisalar to‘g‘risidagi nizomi. Baxtsiz xodisa turlari. Baxtsiz xodisalarning oldini olish tadbirlari. Jaroxatlanish sabablarini taxlil etish va mehnat muhofazasi masalalarini iqtisodiy baholash.	2 2	N A	1 1
8.	Ishlab chiqarishda elektr xavfsizligini ta’minlash	Elektr tokining inson organizmiga ta’sir qilishining o‘ziga xos xususiyatlari. Elektr tokining inson organizmiga ta’siri oqibatini belgilovchi omillar. Tegish kuchlanishiga va qadam kuchlanishiga tushish holatlari. Elektr uskunalarining va elektr qurilmalari joylashgan xonalarning elektr xavfsizligi bo‘yicha klassifikatsiyasi. Kuchlanish ostidagi tok o‘tkazuvchi qismlarga tegib ketishdan himoyalanish usullari va vositalari.	2 2	N A	1 1
9.	Katta energiya va bosim bilan ishlovchi uskuna va qurilmalarni ishlatishdagi xavfsizlik talablari	Katta energiya va bosim bilan ishlovchi uskuna, qurilmalarning va idishlarning turlari va guruhlanishi. Uskunalarning xavfsizligini nazorat qilish asboblariga qo‘yiladigan umumiy xavfsizlik talablari. Bug‘ va suv qozonlarini ishlatganda xavfsizlik talablari. Suyultirilgan, eritilgan va siqilgan gazlar saqlanadigan idishlarni ishlatganda xavfsizlik talablari. Kompressor qurilmalarini ishlatganda xavfsizlik talablari.	2	N	1
10.	Yuk tashish va yuklash-tushirish ishlarida xavfsizlik talablari	Ishlab chiqarishdagi yuklarning xavfsizlik bo‘yicha guruhlanishi. Odamlarni transport vositalarida tashishda xavfsizlik talablari. Xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarga qo‘yiladigan talablar. Yuklash-tushirish mashina va vositalarining texnik holatiga qo‘yiladigan xavfsizlik talablari. Yuklash-tushirish maydonchasiga va materiallarni saqlashga, joylashtirishga bo‘lgan xavfsizlik talablari.	2	N	1
4-bo‘lim. Favqulodda vaziyatlarni oldini olish, to‘g‘ri harakatlanish va yong‘in xavfsizligini ta’minlash					
11.	Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar. Ularni oldini olish chora tadbirlari	Ishlab chiqarish jarayonida, shuningdek inson omili natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar. Avariya, halokat va boshqa nosozliklar natijasida ishchi va xizmatchilarning	2	N	1

		jabrlanish ehtimoli. Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni oldini olish chora-tadbirlari.			
12.	Tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlar, ularda to‘g‘ri harakatlanish tartibi	Mehnat jarayonida zilzila, suv toshqini va kuchli shamol yuzaga kelganda to‘g‘ri harakatlanish tartibi. Ish joyida zilzilaga qadar, zilzila vaqtida va zilzziladan keyingi to‘g‘ri harakatlar tartibi. Tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishga jalb etiladigan kuch va vositalar, ularning imkoniyatlari.	2	N	1
13.	Yong‘inning oldini olish va o‘chirishni tashkil qilish, evakuatsiya chora-tadbirlari. O‘t o‘chirish vositalari	Yong‘inning oldini olish va o‘chirishni tashkil qilish, evakuatsiya chora-tadbirlari. O‘t o‘chirish vositalari. Yong‘inga qarshi tadbirlar. O‘t o‘chirish vositalarining turlari. Yong‘inni o‘chirish usullari. O‘tni o‘chirishda suv ta’minoti. Avtomatik o‘t o‘chirish uskunalari. Yong‘in darakchilari va aloqa vositalari.	2	N	1
14.	Ish joyida favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish va jabrlanganlar-ga birinchi yordam ko‘rsatish	Qutqaruv va fuqaro muhofazasi tuzilmalari. Tuzilmalar tarkibiga kiritiladigan ishchi, xodimlarga qo‘yilgan talablar. Tuzilmalarning favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishdagi ishtiroki. Jabrlanganlarga birinchi yordam ko‘rsatish tartibi. Hayot uchun zarur bo‘lgan omillar (qon ketish, hushdan ketish, yurak faoliyatini buzilishi, shok holatlari va h.k.) ularni tiklash tartibi.	2	A	1
Jami:			**36**	**32/4**	**18**

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘quv dasturi davomida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga hamohang bo‘lishi lozim.

4. Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati:

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘taramiz. T.: – “O‘zbekiston”, - 2018.

2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.: – “O‘zbekiston”-2018.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

3. O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 28-sentabrda qabul qilingan “Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘irsida”gi Qonuni.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 10-sentabrda qabul qilingan “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi Qonuni.

5. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 22-sentabrda qabul qilingan “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (yangi taxriri) Qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-avgustda qabul qilingan “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 286-sonli qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-oktabrdagi “Yong‘in xavfsizligi qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 649-sonli qarori.

III. Asosiy adabiyotlar

10. Yormatov G‘. va b. “Mehnatni muhofaza qilish” Darslik–T.: “O‘zbekiston” - 2002 y.
11. Yuldashev O.R. va b. “Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi” Darslik–T.: Davr - 2014 y.
12. Yuldashev O.R., Djabborova Sh.G., Xasanova O.T. “Hayot faoliyati xavfsizligi” Darslik–T.: “Toshkent-Iqtisodiyot”, 2014.– 268 b.
13. Ibragimov E.I., Gazinazarova S., Yuldashev O.R., “Mehnat muhofazasi maxsus kursi”. Darslik.-T.: TIMI, 2014.-536 б.
14. Yormatov G‘. “Mehnatni muhofaza qilish” Toshkent, 2001y.
15. Boymirzayev A. “Hayot xavfsizligi va birinchi tibbiy yordam” T.: Zilol buloq, 2019.-396 b.

IV. Qo‘shimcha adabiyotlar

16. Hikmatullayev S. va boshqalar. “Geologik xavfli hodisalar” Uslubiy ishlanma. T.,2008.-14 b.
17. Ayubov E.N. “Действия в экстремальных ситуациях (самозащита)”, научно-популярное издание – М., 2017.
18. Ayubov E.N. “Природные угрозы”, научно-популярное издание – М., 2017.
19. Ayubov E.N. “Пожары и взрывы”, научно-популярное издание – М., 2017.
20. Ayubov E.N. “Первая помощь”, научно-популярное издание – М., 2017.
21. Abidova F.A., “Favqulodda vaziyatlarda aholining harakatlari bo‘yicha tavsiyalar” – T., 2017y.
22. Gafurov N.N., “Радиация и лучевая болезнь” Методическая разработка – T., 2017y.
23. Abidova F.A., Abidov A.B., “Kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalarning xususiyatlari” Uslubiy qo‘llanma – T., 2018y.
24. Haydarov R. va boshqalar. “Fuqarolar uchun zilzila vaqtida tegishli harakat va tadbirlarni amalga oshirish” Uslubiy qo‘llanma. T., 2021.-14 б.

V. Internet manbalari

25. www.fvv.uz
26. www.mehnat.uz
27. www.fvvfmi.uz
28. www.edu.uz.
29. www.edu.profedu.uz

“O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI” AKSIYADORLIK JAMIYATI
“TEMIRYO‘LINFRATUZILMA” AKSIYADORLIK JAMIYATI

PERSONALNI TAYYORLASH MUASSASASI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIMNING

40711503 - Lokomotivlarni boshqarish mashinisti yordamchisi kasbi bo‘yicha

Temir yo‘llardan texnik foydalanish qoidalari va yo‘riqnomalar fanidan

O‘QUV DASTURI

Kvalifikatsiyalar nomi:
1. Elektrovoz mashinisti yordamchisi
2. Teplovoz mashinisti yordamchisi
3. Elektropoyezd mashinisti yordamchisi

O‘quv rejadagi tartib raqami: 1.03

Ajratilgan soat: 72

Toshkent – 2024

Tuzuvchilar:	Z.F.Mirzaraxmedov	“Temiryo‘linfratuzilma” AJ Personalni tayyorlash muassasasi Mashinist va mashinist yordamchi-larini tayyorlash va qayta tayyorlash o‘quv markazi bo‘lim boshlig‘i
	A.A.Dustov	“Temiryo‘linfratuzilma” AJ Personalni tayyorlash muassasasi Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash o‘quv markazi IT bo‘yicha mutaxassisi.
Taqrizchilar:	B.B.Kunanbayev	“Temiryo‘linfratuzilma” AJ Yo’l xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i v.b.
	Sh.T.Tulyaganov	“Temiryo‘linfratuzilma” AJ Lokomotivlardan foydalanish boshqarmasi boshlig‘i.
	G.G. Yuldashev	“Temiryo‘linfratuzilma” AJ Elektr ta’minoti boshqarmasi boshlig‘i.
	K.A.Jo‘raboyev	Temiryo‘linfratuzilma” AJ Personalni tayyorlash muassasasi boshlig‘i.

1. O‘quv dasturiga umumiy talablar

Dastur nomi	Temir yo‘llardan texnik foydalanish qoidalari va yo‘riqnomalar
Ajratilgan soat	72
Mavzular soni	8
Dasturning maqsadi	Fanning maqsadi vazifasi va mutaxassislikni tayyorlashda fanning ahamiyati. Kurs o‘zlashtirilishi quyidagi yo‘nalishlarga asoslanadi. Poyezdlar harakati xavfsizligini ta’minlash.
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	Temir yo‘llardan texnik foydalansh qoidalarini bilish, nizomlar bilan tanishish
Bilimlar	- temir yo‘l transporti ishchilarining umumiy majburiyati; - inshootlar va qurilmalarga qo‘yiladigan talablarni; - harakat tarkibiga qo‘yiladigan talablarni; - harakat tarkibiga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlashni; - poyezdlar harakatini tashkillashtirishni; - poyezdlar harakatini xavfsiz tashkil etishni.
Ko‘nikmalar	- signalizatsiya va aloqa distansiyasi; - signallar; - ovozli va ko‘rinuvchan signallarni harakat tarkibiga berish; - informatsion hisoblash tizimini; - aloqa liniyasi; - aloqa qurilmalarini texnik xizmati; - aloqaning texnik vositalari; - aloqa qurilmalarini elektr ta’minoti.
O‘quv rejasiga muvofiq o‘zarobog‘liq bo‘lgan fanning nomi	Muhandislik va kompyuter grafikasi, Temir yo‘l umumiy kursi, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi
O‘qitishni tashkiliy shakli	N – Nazariy ta’lim; A – Amaliy mashg‘ulot.
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhda belgilangan o‘qitish tili asosida
Baholash tartibi	Baholash bo‘yicha amaldagi tartib asosida
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash	Yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriq

2. O‘quv dasturi mazmuni

№	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O`qitishni tashkiliy shakli	Mustaqil ta`lim
1	Kirish. Umumiy qoidalar	Temir yo‘l transporti xodimlarining umumiy vazifalari.	2	N	1
2	Inshoot va qurilmalar	Umumiy qoidalar. Gabarit. Yo‘l xo‘jaligi inshoot va qurilmalari. Yo‘lning rejasi va profili. Tuproq ko‘tarma, yo‘lning yuqori tuzilmasi va suniy inshootlar. Relslar va strelka o‘tkazgichlar. Temir yo‘llarning kesishuvlari, pereezdlari va tutashmalari. Yo‘l va signal belgilari.	4 4	N A	2 2
3	Lokomotiv va vagon xo‘jaliklari, stansiya xo‘jaligining	Lokomotiv va vagon xo‘jaliklari, suv ta’minoti va oqava xo‘jaligi inshootlari va qurilmalari. Stansiya xo‘jaligining inshoot va qurilmalari.	4	N	2
4	Temir yo‘llar elektr ta’minoti inshoot, qurilmalari va qurilmalarni ko‘rikdan o‘tqazish	Temir yo‘llar elektr ta’minoti inshoot va qurilmalari. Inshoot va qurilmalarni ko‘rikdan o‘tqazish va ta’mirlash. Inshoot va qurilmalarni ko‘rikdan o‘tkazish. Inshoot va qurilmalarni ta’mirlash.	4	N	2
5	Harakat tarkibi	Umumiy talablar. G‘ildirak juftliklari. Tormoz uskunalari va avtotirkama qurilmalari. Harakat tarkibiga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash. Lokomotivlar va motorovagon harakat tarkibiga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni ta’mirlash. Vagonlarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash.	6 6	N A	3 3
6	Signalizatsiya, aloqa va xisoblash texnika sininginshoot va qurilmalari	Signallar.Svetoforlar va signallarning o‘qishlari. Svetoforlarni o‘rnatish va ularning ko‘rinishi uchun talablar. Avtomatik va yarim avtomatik yo‘l blokirovkasi. Signal va strelkalarni elektr markazlashtirish. Markazlashtirilgan dispetcherlik. Avtomatik lokomotiv signalizatsiyasi va avtostoplar. Strelka va signallarning o‘zaro kalitli bog‘liqligi. Stansiya blokirovkasi. Saralash tepaliklarining mexanizatsiya va avtomatizatsiya qurilmalari. Pereezd avtomatik signalizatsiyasi va avtomatik shlagbaumlar. Poyezd yaqinlashayotgani haqida xabar beruvchi avtomatik tizimlar. Qizigan buksalarni avtomat tarzda aniqlash qurilmalari. Signal ko‘rsatkichlari: marshrut, strelka, yo‘l to‘siqlari, hidrokolonkalar, qutining yonishi, tokopriemnikni tushirish va ularga qo‘yiladigan talablar. Vaqtinchalik va doimiy signal belgilari. Manyovr signallari. Manyovr svetoforlari. Qo‘l va	10 8	N A	5 4

		ovozli signallar. Poyezdlar va lokomotivlarning belgilari. Ovozli signallar. Xavfli signallar. Signallarni va o‘qlarni bog‘lash. Aloqa. Temir yo‘l transportining ma’lumot-hisoblash tizimi. SSB va aloqa liniyalari. SSB va aloqa qurilmalariga texnikaviy xizmat ko‘rsatish.			
7	Poyezdlar harakatini tashkil etish	Poyezdlar harakati grafigi. Aloxida punktlar. Stansiyaning texnikaviy ishini tashkillashtirish. Umumiy talablar. Strelkali o‘tkazgichlardan foydalanish. Manyovrlarni amalga oshirish. Poyezdlarni tuzish. Poyezdlarga tormozlarni qo‘shish tartibi. Poyezdlarni jihozlash va ularga xizmat ko‘rsatish. Lokomotivlarni poyezdlarga ulash.	8 4	N A	4 2
8	Poyezdlar harakati	Umumiy talablar. Poyezdlarni qabul qilish. Poyezdlarni jo‘natish. Poyezdlarni harakatida signalizatsiya va aloqa vositalari. Poyezdlarning harakatlanish tartibi. Lokomotiv va motorovagon poyezdlari mashinistlarining poyezdlarni boshqarish tartibi. Peregonda poyezdning majburiy to‘xtashidagi xatti – harakat tartibi. Xavfli yuklarni tashish. Tez yurar poyezdlar harakati.	8 2	N A	4 1
Jami:			**72**	**48/24**	**36**

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘quv dasturi davomida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga hamohang bo‘lishi lozim.

4. Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Shavkat Mirziyoyev. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. Toshkent – “O‘zbekiston”, 2018y.
2. Shavkat Mirziyoyev. “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir” Toshkent – “O‘zbekiston”, 2018y.
3. Правила технической эксплуатации Республики Узбекистан. Ташкент: ГУ «Узгосжелдорнадзор», 2017.
4. Инструкции для локомотивов и поездов и маневровой работы и сигнальных станций Республики Узбекистан. Ташкент: ГУ «Узгосжелдорнадзор», 2017.
5. Инструкции и сигналы и знаки Республики Узбекистан. Ташкент: ГУ «Узгосжелдорнадзор», 2017.
6. Г.Б.Шавкин. Организация движения поездок и работы железнодорожных станций. М.: «Высшая школа», 1981.
7. Приказ № 1/Н от 5.01.2009 "О мерах по обеспечению безопасности на железнодорожныхпутях компаниях".
8. Инструкции по безопасности поездов в производственном процессе. СП/4402.
9. Предполагается техническая эксплуатация. Под ред. Кулаева К.В. М.: Транспорт, 1985.
10. Устав о дисциплине работников автомобильного транспорта.

Internet manbalari

11. http://www.uzrailway.uz/
12. http://www.tashiit.uz/
13. http://www.lex.uz/

“O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI” AKSIYADORLIK JAMIYATI
“TEMIRYO‘LINFRATUZILMA” AKSIYADORLIK JAMIYATI

PERSONALNI TAYYORLASH MUASSASASI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIMNING

40711503 - Lokomotivlarni boshqarish mashinisti yordamchisi kasbi bo‘yicha

Axborot texnologiyalari fanidan

O‘QUV DASTURI

Kvalifikatsiyalar nomi:
1. Elektrovoz mashinisti yordamchisi
2. Teplovoz mashinisti yordamchisi
3. Elektropoyezd mashinisti yordamchisi

O‘quv rejadagi tartib raqami: 1.04

Ajratilgan soat: 36

Toshkent – 2024

Tuzuvchilar:	J.F.Hakimov	“Temiryo‘linfratuzilma” AJ Personalni tayyorlash muassasasi Mashinist va mashinist yordamchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash o‘quv markazi IT bo‘yicha mutaxassisi.
Taqrizchilar:	Sh.Sh.Ibragimov	“Temiryo‘linfratuzilma” AJ Personalni tayyorlash muassasasi o‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i.
	X.Sh.Suyunov	“Temiryo‘linfratuzilma” AJ Personalni tayyorlash muassasasi o‘quv-uslubiy bo‘lim yetakchi mutaxassisi.

1. O‘quv dasturiga umumiy talablar

Dastur nomi	Axborot texnologiyalari
Ajratilgan soat	36
Mavzular soni	12
Dasturning maqsadi	Raqamli texnologiyalarni faol joriy etish, elektron xizmatlardan foydalanishni qo‘llab-quvvatlash, temir yo‘l xizmatlarini bosqichma-bosqich elektron shaklga o‘tkazish hamda xodimlarning raqamlashtirish yo‘nalishlarida ko‘nikmalarini oshirish
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	Elektron hukumatda “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash
Bilimlar	Raqamlashtirish jarayonlarida axborot resurslarining o‘rni; “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ axborot resurslari va axborot tizimlari; Normativ-huquqiy hujjat tushunchasi va turlari; “Elektron hukumat” tushunchasi, maqsadi, normativ-huquqiy asoslari, asosiy prinsiplari va arxitekturasi; Kompleks integrallashgan axborot tizimlari (ERP) va ularning umumiy arxitekturasi; O‘zbekiston davlat standartlari (O‘z DSt) va ulardan foydalanish; O‘z DSt 1985:2018 Axborot texnologiyasi. Axborot tizimlarini yaratishda hujjatlar turlari, to‘liqligi va belgilanishi; O‘z DSt 1986:2018 Axborot texnologiyasi. Axborot tizimlari. Yaratish bosqichlari; O‘z DSt 1987:2018 Axborot texnologiyasi. Axborot tizimini yaratish texnik topshirig‘i. Jarayon haqida. Jarayonlar dekompozitsiyasi (qismlarga ajratish). Biznes jarayonlarni optimallashtirish – BPR tushunchasi, BPR qilish bosqichlari; Jarayonning “AS IS” (“qanday edi”) va “TO BE” (“qanday bo‘lishi kerak”) modellari. Jarayon sxemasi va uning tavsifi. Jarayon qatnashchilari va jarayon “egasi”; Yagona identifikatsiya tizimi, Yagona billing tizimi, Yagona xabardor qilish tizimlari va boshqalarga ulanish.
Ko‘nikmalar	Strategiyada qo‘yilgan masalalarni hal qilish yo‘llari; “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJni raqamli transformatsiya qilish masalalari; “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ axborot tizimlari va resurslarini Elektron hukumatdagi tutgan o‘rni; Axborot tizimlarining texnik hujjatlarini

	tayyorlash, vakolatli organlarda ekspertizadan o‘tkazish, joriy qilish tartiblari; Axborot tizimlarini yaratish bosqichlari va ularni yaratish jarayonida ishlab chiqilishi zarur bo‘lgan hujjatlari; “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ da mavjud jarayon misolida BPRni amalga oshirish amaliyoti; Murakkab tizimlarni yaratishda tizimli yondashuv; Axborot tizimlari o‘rtasida o‘zaro ma’lumotlar almashinuvi (integratsiya) qilish hamda idoralararo integratsion platformaga va raqamli ma’lumotlar platformasiga ulanish bo‘yicha texnik yo‘riqnomani ishlab chiqish amaliyoti; Elektron davlat xizmatlarini joriy qilish, “3 qadam” tamoyili, mobil ilovalar, elektron davlat xizmati reglamentini ishlab chiqish amaliyoti; Elektron hukumatda “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash.
O‘quv rejasiga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fanning nomi	Matematika
O‘qitishni tashkiliy shakli	N – Nazariy ta’lim; A – Amaliy mashg‘ulot.
Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhda belgilangan o‘qitish tili asosida
Baholash tartibi	Baholash bo‘yicha amaldagi tartib asosida
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash	Yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriq

2. O‘quv dasturi mazmuni

№	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O`qitishni tashkiliy shakli	Mustaqil ta`lim
1.	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasi	Axborot. Axborot resurslari. Axborot tizimlari. Axborotlashtirish ob’ektlari. Raqamlashtirish jarayonlarida axborot resurslarining o‘rni. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ axborot resurslari va axborot tizimlari.	2 2	N A	1 1
2.	“Raqamli O‘zbekiston-2030” Strategiyasi haqida	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni va unda “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJni raqamli transformatsiya qilish masalalari. Strategiyada qo‘yilgan masalalarni hal qilish yo‘llari.	4	N	2
3.	AKT sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar va ularning ijrosi	Normativ-huquqiy hujjat tushunchasi va turlari. “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi qonun (dekabr, 2015 y.): “Elektron hukumat” tushunchasi, maqsadi, normativ-huquqiy asoslari, asosiy prinsiplari, arxitekturasi. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ axborot tizimlari va resurslarini Elektron hukumatdagi tutgan o‘rni.	2 2	N A	1 1
4.	Axborot tizimlari, ularni ishlab chiqish va joriy qilish bosqichlari	Murakkab tizimlarni yaratishda tizimli yondashuv. Kompleks integrallashgan axborot tizimlari (ERP) va ularning umumiy arxitekturasi. Axborot tizimlarining texnik hujjatlarini tayyorlash, vakolatli organlarda ekspertizadan o‘tkazish, joriy qilish tartiblari. Axborot tizimlarini yaratish bosqichlari va ularni yaratish jarayonida ishlab chiqilishi zarur bo‘lgan hujjatlari. O‘zbekistin davlat standartlari (O‘z DSt) va ulardan foydalanish: O‘z DSt 1985:2018 Axborot texnologiyasi. Axborot tizimlarini yaratishda hujjatlar turlari, to‘liqligi va belgilanishi. O‘z DSt 1986:2018 Axborot texnologiyasi. Axborot tizimlari. Yaratish bosqichlari. O‘z DSt 1987:2018 Axborot texnologiyasi. Axborot tizimini yaratish texnik toshirig‘i.	4 2	N A	2 1
5.	Axborot tizimlarini loyihalashtirish, ishlab chiqishda jarayonli yondoshuv	Jarayon haqida. Jarayonlar dekompozitsiyasi (qismlarga ajratish). Biznes jarayonlarni optimallashtirish – BPR tushunchasi, BPR qilish bosqichlari. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ da mavjud jarayon misolida BPRni amalga oshirish amaliyoti. Jarayonning “AS IS” (“qanday edi”) va “TO BE” (“qanday bo‘lishi kerak”) modellari. Jarayon sxemasi va uning tavsifi. Jarayon qatnashchilari va jarayon “egasi”.	4 2	N A	2 1

6.	Axborot tizimlarining o‘zaro (idoralararo) elektron munosabatlari	Axborot tizimlari o‘rtasida o‘zaro ma’lumotlar almashinuvi (integratsiya) qilish hamda Idoralararo integratsion platformaga va Raqamli ma’lumotlar platformasiga ulanish bo‘yicha texnik yo‘riqnomani ishlab chiqish amaliyoti, Yagona identifikatsiya tizimi, Yagona billing tizimi, Yagona xabardor qilish tizimlari va boshqalarga ulanish.	4 2	N A	2 1
7.	“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tomonidan “Yagona darcha” orqali yo‘lga qo‘yilgan va qo‘yilishi kerak bo‘lgan elektron davlat xizmatlari	Elektron davlat xizmatlarini joriy qilish, “3 qadam” tamoyili, mobil ilovalar, elektron davlat xizmati reglamentini ishlab chiqish amaliyoti. Elektron hukumatda “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash.	2 2	N A	1 1
8.	Yakuniy mashg‘ulot	O‘zaro fikr almashish. Savollarga javoblar. Tinglovchilar bilimini baholash.	2	N	1
Jami:			**36**	**24/12**	**18**

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘quv dasturi davomida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga hamohang bo‘lishi lozim.

4. Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati

1. T.R.Nurmuxamedov, M.M.Rasulmuxamedov, Temir yo‘l transportida axborot tizimlari: o‘quv qo‘llanma / O‘zbekiston Respublikasi transport vazirligi, Toshkent davlat transport universiteti. – Toshkent : Transport, 2021 y.

2. M.M.Rasulmuxamedov, Dasturlash tillari va texnologiyalari, Toshkent – 2019 y.

3. I.B.Aminov, X.A.Bustanov, S.Z.Raximov, Axborot texnologiyalari. SamDU tahririy-nashriyot bo‘limi – 2020 y.

4. M.Aripov, B.Begalov, U.Begimqulov, M.Mamarajabov. Axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent - “Noshir” – 2009 y.

Internet manbalari

5. https://www.google.com
6. https://mohirdev.uz/courses/htmlda-dasturlash
7. https://mohirdev.uz/courses/css-2021

“O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI” AKSIYADORLIK JAMIYATI
“TEMIRYO‘LINFRATUZILMA” AKSIYADORLIK JAMIYATI

PERSONALNI TAYYORLASH MUASSASASI

O‘RTA PROFESSIONAL TA’LIMNING

40711503 - Lokomotivlarni boshqarish mashinisti yordamchisi kasbi bo‘yicha

Fuqaro himoyasi fanidan

O‘QUV DASTURI

Kvalifikatsiyalar nomi:
1. Elektrovoz mashinisti yordamchisi
2. Teplovoz mashinisti yordamchisi
3. Elektropoyezd mashinisti yordamchisi

O‘quv rejadagi tartib raqami: 1.05

Ajratilgan soat: 36

Toshkent – 2024

Tuzuvchilar:	E.A.Baydullayev	“Temiryo‘linfratuzilma” AJ Personalni tayyorlash muassasasi Mashinist va mashinist yordamchi-larini tayyorlash va qayta tayyorlash o‘quv markazi uslubchisi.
Taqrizchilar:	Sh.Sh.Ibragimov	“Temiryo‘linfratuzilma” AJ Personalni tayyorlash muassasasi o‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i.
	X.Sh.Suyunov	“Temiryo‘linfratuzilma” AJ Personalni tayyorlash muassasasi o‘quv-uslubiy bo‘lim yetakchi mutaxassisi.

1. O‘quv dasturiga umumiy talablar

Dastur nomi:	Fuqaro himoyasi
Ajratilgan soat:	36
Mavzular soni:	6
Dasturning maqsadi:	Fanni o‘rganishning asosiy vazifasi Fuqaro himoyasi bilan tanishtirish
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari:	O‘zbekiston Respublikasida fuqaro muhofazasi tizimining ro‘li, vazifalari va tashkiliy tuzilishi haqida umumiy tushuncha. Favqulotda vaziyatlar haqida tushuncha. Yurtimizda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulotda vaziyatlar haqida umumiy tushuncha.
Bilimlar:	- Favqulodda vaziyatlarni o‘rganib oladilar; - FVV tizimi bilan tanishib olish; - O‘zbekistonda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan FV larni o‘rganish; - O‘zini himoyalash chora – tadbirlari bilan tanishish; - Yuqumli kasalliklar bilan tanishish; - Favqulodda vaziyat signallarini o‘rganish.
Ko‘nikmalar:	- Birinchi yordam ko‘rsatish; - Yuqumli kasalliklarda o‘zini himoya qilish choralarini qo‘llash; - Favqulodda vaziyatlar sinflarini ajratish; - Temir yo‘llarda evakuatsiyani tashkil etish.
O‘quv rejasiga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fanning nomi:	Temir yo‘l transportida mehnat muhofazasi, Temir yo‘llardan texnik foydalanish qoidalari va yo‘riqnomalar.
O‘qitishni tashkiliy shakli:	N – Nazariy ta’lim; A – Amaliy mashg‘ulot.
Dasturga qo‘yilgan talab:	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhda belgilangan o‘qitish tili asosida
Baholash tartibi:	Baholash bo‘yicha amaldagi tartib asosida
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash:	Yozma, og‘zaki, savol-javob, testlar

2. O‘quv dasturi mazmuni

T/r	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O‘qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta’lim
1	Favqulotda vaziyatlar haqida tushuncha.	O‘zbekiston Respublikasida fuqaro muhofazasi tizimining roli, vazifalari va tashkiliy tuzilishi haqida umumiy tushuncha. Favqulotda vaziyatlar haqida tushuncha.	2	N	1
2	Yurtimizda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulotda vaziyatlar.	Yurtimizda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulotda vaziyatlar haqida umumiy tushuncha. Ular sodir bo‘lganda amalga oshiriladigan ishlar. Favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lishini	2 4	N A	1 2

		oldini olish bo‘yicha chora – tadbirlar.			
3	Transport avariyalari, halokatlari va ularga tez tibbiy yordam ko‘rsatish	Transport avariyalari, halokatlari va ularga tez tibbiy yordam ko‘rsatish haqida umumiy tushuncha. Favqulloda vaziyatlarning 7 sinfi haqida tushuncha.	2 6	N A	1 3
4	Tabiiy ofatlar (zilzila, yong‘n va yer ko‘chishi). Aholi o‘rtasida yuqumli kasalliklarni kelib chiqishi (COVID-19, vabo, o‘lat, OITS, odamlarning ovqatdan zaharlanishi. Sibir yarasi). Ularning oldini olish va himoyalanish.	Tabiiy ofatlar haqida umumiy tushuncha. Aholi o‘rtasida yuqumli kasalliklarni kelib chiqishi haqida umumiy tushuncha. Ularning oldini olish va himoyalanish. Kasallik tarqaldanda o‘zini tutish va harakatlanish tartibi to‘g‘risida tushuncha. Yuqumli kasalliklarning turlari, tavsifi, xavfli tomonlari, kasallik belgilari davolash choralari.	2 4	N A	1 2
